

EPIDEMIOLOGIYA SOHASIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI: TARIXIY Tajriba va ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ubaydullayeva Shahlo Abdullayevna¹

Annotasiya: Maqolada O'zbekistonda yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va epidemiologiya sohasida xotin-qiz tibbiyot xodimlari va olimlarining hissasi tahlil qilingan. Ular klinik va ilmiy-tadqiqot ishlari orqali kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo'yish va davolashda muhim rol o'ynadilar. Shuningdek, Toshkent davlat pediatriya instituti, Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida kafedralar va klinik bo'limlar faoliyati, kadrlar tayyorlash va epidemiyalarga qarshi tadbirlar tarixiy kontekstda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yuqumli kasalliklar, epidemiologiya, xotin-qiz olimlar, profilaktika, bolalar sog'lig'i, ilmiy-tadqiqot

Kirish. Insoniyat tarixi davomida yuqumli kasalliklar jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri hisoblanadi. Turli tarixiy davrlarda vabo, chinchek, o'lat kabi epidemik kasalliklar keng miqyosda tarqalib, aholi o'rtasida yuqori o'lim ko'rsatkichlarini keltirib chiqargan hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga katta zarar yetkazgan. Ilmiy bilimlar yetarli darajada shakllanmagan sharoitda ham ayrim mutafakkir va tabiblar mazkur kasalliklarning yuqumli xususiyatga ega ekanligini taxmin qilganlar va bu yo'nalishda dastlabki nazariy qarashlarni ilgari surganlar[8, 23].

Jahonda atrof-muhit va iqlim o'zgarishi, aholi zichligining ortishi, migrasion jarayonlarning faollashuvi hamda turmush tarzining transformasiyasi ayrim virusli yuqumli kasalliklarning epidemiya va pandemiya shaklida keng tarqalishiga olib kelmoqda. Globallashuv sharoitida infeksiyon kasalliklarning transchegaraviy xususiyat kasb etishi ularga qarshi tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Viruslarning tabiiy muhitda shakllanishi va aholi o'rtasida tarqalishi biologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan ob'ektiv jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan dunyo sog'liqni saqlash tizimi oldida infeksiyon kasalliklarga qarshi samarali kurashish, ularning oldini olish va aholi salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur sohada tarixiy tajribani ilmiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish esa dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan aholining ijtimoiy-maishiy sharoitini yaxshilash, sanitariya madaniyatini yuksaltirish, epidemiyalarga qarshi kurashish va ularning o'choqlarini bartaraf etish, ekologik omillarning aholi salomatligiga ta'sirini o'rganish hamda o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda[4, 12].

Muhokama va natijalar. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida ham yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish ommaviy sog'liqni saqlash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, epidemiologik vaziyat murakkablashib borayotgan sharoitda mazkur sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, shuningdek, mavjud tarixiy tajribani ilmiy tahlil qilish va umumlashtirish tadqiqotchilar oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat sog'liqni saqlash tizimida tarkibiy va institusional o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu jarayon ayrim hollarda davolash muassasalari

¹ **Ubaydullayeva Shahlo Abdullayevna**, t.f.f.d (PhD), dotsent O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar Tel: +998 (91) 947-47-33 E-mail: ubaydullayeva_shahlo@mail.ru <https://orcid.org/0009-0005-6941-7300>

quvvatlarining qisqarishi bilan kechdi. Xususan, 1995–2002 yillar mobaynida respublika bo'yicha 50 mingta stasionar davolash o'rinlari qisqartirildi hamda 314 ta shifoxona muassasasi faoliyati tugatildi. 2002 yil holatiga ko'ra, shifoxonalardagi o'rtacha davolash o'rinlari soni 138 tani tashkil etgan[4, 45]. Qisqartirishlar asosan shahar va qishloq uchastka shifoxonalari, yuqumli kasalliklar hamda ayrim ixtisoslashgan davolash muassasalari hisobiga amalga oshirildi. Natijada ayrim hududlarda stasionar davolash o'rinlari 1,5–3 barobarga kamaygan. Davolash muassasalari quvvatlarining qisqarishi infeksiyon kasalliklarni barvaqt aniqlash, izolyasiya qilish va stasionar sharoitda davolash imkoniyatlarini cheklab, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash samaradorligiga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlari tomonidan yuqumli kasalliklar ko'rsatkichlarini pasaytirish, bemorlarni o'z vaqtida aniqlash va samarali davolash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublika miqyosida profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlarning tizimli ravishda joriy etilishi natijasida oldingi davrlarga nisbatan yuqumli kasalliklar ko'rsatkichlarining sezilarli darajada kamayishiga erishildi. Jumladan, 1991–2018 yillar oralig'ida ich terlama bilan kasallanish ko'rsatkichi 246,6 barobarga, salmonellyoz – 12,4 barobarga, gripp – 9,8 barobarga, yuqori nafas yo'llarining o'tkir respirator kasalliklari – 6,8 barobarga, virusli gepatit A turi – 5,4 barobarga, bakterial dizenteriya – 5,4 barobarga hamda o'tkir ichak infeksiyalari – 4,5 barobarga kamaygan[5, 23]. Shuningdek, respublikada 16 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida virusli gepatit V turi holatlari qayd etilmagan.

Bugungi kunda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur yo'nalishda sog'liqni saqlash tizimida institusional tuzilmalar shakllantirilib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash tizimida 4 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 200 dan ortiq davlat sanitariya-epidemiologik nazorat markazlari, Respublika o'lat-karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi markazi, shuningdek OITSga qarshi kurash markazlari faoliyat yuritmoqda[9, 6]. Ushbu muassasalar tomonidan epidemiologik nazoratni kuchaytirish, infeksiyon kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Mazkur yutuqlarni qo'lga kiritishda xotin-qiz tibbiyot xodimlarining munosib hissasi mavjud. Ularning fidokorona mehnati, yuqori kasbiy mahorati va ilmiy izlanishlari infeksiyon kasalliklarga qarshi kurash samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shunday yetakchi mutaxassislardan biri tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi Muboraxon Ahmedova hisoblanadi. M.Ahmedova yuqumli kasalliklarga qarshi kurash sohasida ilmiy va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirgan holda samarali ish olib bordi. Xususan, 1994 yilda u homilador ayollarda virusli gepatit V turining klinik kechishi, kasallik natijalari hamda uning patogenetik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi[10, 4]. Ushbu tadqiqot infeksiyaning ona va bola salomatligiga ta'sirini baholash hamda profilaktika va davolash chora-tadbirlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Muboraxon Ahmedova epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar sohasida yirik mutaxassis sifatida nafaqat ilmiy tadqiqotlar olib bordi, balki yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ham munosib hissa qo'shdi. U rahbarlik qilgan davrda ko'plab shogirdlar yetishib chiqib, sohaning ilmiy va amaliy yo'nalishlarida faoliyat yuritishni boshladi. Ayniqsa, epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tadqiqot institutiga rahbar etib tayinlanganidan so'ng muassasa faoliyatida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi. Institutning ilmiy salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va nufuzini yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida institut va uning klinik shifoxonasi kapital ta'mirlandi, zamonaviy tibbiy jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va amaliyot sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi. Muboraxon Ahmedova tibbiyot sohasidagi samarali ilmiy va tashkiliy faoliyati uchun "O'zbekistonning fidoyi ayollari" kitobiga kiritilgan. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi ko'p yillik samarali mehnati uchun "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. U

Yevro-Osiyo infeksiyonistlar jamiyati vise-prezidenti, 2006 yildan esa Rossiya Federatsiyasi tibbiyot va texnika fanlari akademiyasining akademigi hisoblanadi[10, 4].

Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida dosenti Karimova Mavluda Turabjonovna o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi mutaxassislardan biri hisoblanadi. U 1981 yilda mehnat faoliyatini tibbiyotning eng murakkab yo'nalishlaridan biri — vrach-infeksiyonist sifatida boshlagan. Ko'p yillik faoliyati davomida u fan va amaliyot uyg'unligi asosida yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, ularning oldini olish va davolash usullarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib bordi. Xususan, homilador ayollarda virusli gepatit V kasalligining kechishida interferon statusi o'zgarishlarini tadqiq etib, kasallik patogenezini chuqurroq anglashga hissa qo'shdi. Shuningdek, u O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tadqiqot institutining A-9-385-granti rahbari sifatida ilmiy loyihalarni boshqargan[13, 4]. M. Karimova yuqumli kasalliklar muammolari bo'yicha ixtisoslashgan komissiya seksiya a'zosi sifatida ham faoliyat yuritgan. Ilmiy-pedagogik faoliyati doirasida u magistr talabalarining ilmiy ishlariga rahbarlik qildi hamda "Yuqumli kasalliklar" yo'nalishida 20 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma va adabiyotlar yaratishda ishtirok etdi[13, 4].

O'zbekistonda bolalar o'rtasida yuqumli kasalliklarning tarqalishiga qarshi kurashish borasida Toshkent davlat pediatriya instituti alohida ahamiyatga ega bo'ldi. 1972 yili O'rta Osiyo tibbiyot pediatriya instituti ochilib, yildan-yilga undagi kafedralar soni va ilmiy salohiyat ortib bordi[11, 8]. Institut tarkibida 40 dan ortiq kafedra, 300 o'rinli klinika, aspirantura hamda doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan Ilmiy Kengash faoliyat yuritdi[6; 5; 4].

Institut ochilgan davrda bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik uning tarmog'i kengaytirilib, 1- va 2-sonli kafedralarga aylantirildi. Bu kafedralar faoliyatida J.I. Egamberdieva, A. Xaratova, S. Muxamedbabaeva, L. Maxmudova, R. Morgunova, A. Kuzmina, S. Daminova, V. Artikova, D. Daminova, X. Ibragimova, M. Daminova, R. Sagirova, Z. Fazilova, G. Zokirxo'jaeva, R. Mudarisova, Sh. Maxkamova, S. Umarova, I. Asqarova, N. Slobodskaya, O. Kadirova va boshqalar katta ilmiy va amaliyotga oid hissa qo'shdilar[6;]. Kafedra asosan Toshkent shahridagi 2-sonli bolalar yuqumli kasalliklar kasalxonasi bazasida joylashgan bo'lib, bu holat kasalxonada bemorlarga aniq tashxis qo'yish va ularni to'g'ri davolashda muhim ahamiyat kasb etdi. Kafedra a'zolari doimiy ravishda nazariy bilim va klinik amaliyotni uyg'unlashtirib, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish sohasida ilmiy va amaliyot uyg'unligini ta'minladilar. Ushbu kafedrada Lola Mahmudova alohida o'rin tutadi. U 117 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi bo'lib, ulardan 59 tasi ilmiy maqola, 32 tasi esa o'quv-metodik qo'llanma sifatida chop etildi. 1997–2001 yillarda L.Mahmudova ToshPTI ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatdi[6;]. Shuningdek, Malika Daminova institutda bolalar yuqumli kasalliklari yo'nalishi bo'yicha klinik ordinaturani tamomladi. U 1990 yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va 1992 yilda ToshPTI bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida dosent lavozimida faoliyat yuritdi[6;]. M.Daminova bolalar o'rtasida yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishdagi xizmatlari uchun "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

2006 yili u fundamental va amaliy tadqiqotlar tanlovida (DITD-14) ishtirok etdi va "Bolalarda ichak disbakteriozini samarali davolash usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi loyihasi grant sovrindori bo'ldi. 2009 yildan boshlab M.Daminova "Bolalarda emlashdan so'ng immunitetning tiklanishini baholash va emlashdan keyingi asoratlarning oldini olish va korreksiya qilish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi yangi ilmiy loyihaga rahbarlik qilmoqda.

Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida ham xotin-qiz xodimlari yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va turli epidemiyalarning sabablari va omillarini o'rganishda faol ishtirok etishdi. Xususan, Gulnoza Iskandarova alohida o'ringa ega bo'lib, 2000 yili "Yangi pestisid XS-2 ni toksikologik baholash va atrof-muhit ob'ektlaridan gigienik jihatdan me'yorlash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2006 yili esa "18–27 yoshli o'smirlar organizmining jismoniy qobiliyati va morfofunktsional rivojlanishining o'ziga xos

tomonlari, qonuniyatlari va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasi va professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi[12;]. Shuningdek, O'zbekistonda yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va epidemiologiya fanini rivojlantirishda Virusologiya ilmiy-tadqiqot institutining o'zni katta. Institut 2009 yil 28 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq faoliyat yuritadi. Institut rahbarlari va bir qator bo'limlar asosan ayollar tomonidan boshqarilgan. Shu bilan birga, turli yuqumli kasalliklarning oldini olish va profilaktikasiga yirik ilmiy va amaliyot ishlari amalga oshirildi. Institut qoshida Milliy gripp markazi faoliyat yuritib, respublika miqyosida gripp va boshqa respirator virusli infeksiyalar bo'yicha ilmiy-uslubiy markaz vazifasini bajardi, markaz xodimlari orasida ayollar ko'pchilikni tashkil etdi[1; 2;]. Ular xalqaro konferensiya va kengashlarda doimiy ishtirok etib, ilmiy tajribalarni oshirishga hissa qo'shdilar.

Virusologiya ITI klinikasida bolalar yuqumli diareya kasalliklari bo'limi ham faoliyat ko'rsatdi, unda 40 ta davolash o'zni mavjud edi. Bolalarda o'tkir diareya kasalliklarining tashxis va davolashi yuqori malakali shifokorlar, jumladan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirildi. Bo'lim mudiri oliy toifali shifokor Nasiba Muhamedova bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda faol ishtirok etdi. Bo'limda shifokor-infeksionistlar Iroda Samatova, Ra'no Yulchieva, Shahnoza Rahmanova ham faoliyat yuritdilar[7;]. Institutning Referens laboratoriyasi mudiri Larisa Alieva mustaqillik yillarida gepatit va OIV tashxis tizimini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynadi. OIV bo'limida 40 davolash o'zni bo'lib, bolalar va kattalarga tibbiy xizmat ko'rsatildi. Bu bo'limda Maftuna Abdusattarova, Nargiza Qo'chqorova, Muattar Sog'dieva, Mahfuza Jabborova, Irina Subbotina kabi oliy toifali shifokorlar faoliyat yuritdilar[7;]. Shuningdek, o'tkir virusli gepatitlar bo'limida Xushnura Saidg'ozieva mudirlik qildi va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash hamda zamonaviy davolash usullarini samarali qo'llashda faollik ko'rsatdi. U bilan birga Go'zal Mo'minova va Oygul Abdurahmanova ham faoliyat yuritdilar. Shuningdek, Dildora Jo'raeva, Nargiza Abidova, Xolida Oqnazarova, Bibihavo Anarbaeva kabi malakali shifokorlar institutning turli bo'limlarida yuqumli kasalliklar bilan bog'liq ishlarni olib bordilar.

Xulosa. O'zbekistonda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish va epidemiologiya sohasida xotin-qizlar tibbiyot xodimlari muhim va uzoq muddatli hissa qo'shdilar. Muboraxon Ahmedova, Karimova Mavluda Turabjonovna, Lola Mahmudova, Malika Daminova, Gulnoza Iskandarova, Nasiba Muhamedova va boshqa ko'plab oliy malakali shifokor va olimlar o'z ilmiy-tadqiqot va klinik faoliyatlari orqali yuqumli kasalliklarning oldini olish, ularni samarali davolash, epidemiya va pandemiyalarning tarqalishini nazorat qilish borasida katta natijalarga erishdilar. Bu faoliyatning tarkibiy qismi sifatida Toshkent davlat pediatriya instituti, Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti va yuqumli kasalliklar bo'yicha kafedralar aniq tashxis qo'yish va samarali davolash imkoniyatlarini ta'minladi, shuningdek yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ilmiy salohiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ilmiy-tadqiqot va klinik amaliyotning uyg'unligi natijasida respublikada bolalar va kattalar o'rtasida yuqumli kasalliklar ko'rsatkichlari sezilarli darajada kamaydi, profilaktika, vaksinasiya va epidemiyaga qarshi tadbirlar tizimli ravishda joriy qilindi. Hozirgi kunda bu sohada xotin-qizlarning ilmiy rahbarlik va tashabbuslari respublika sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim boylik sifatida baholanadi. O'zbekistonda yuqumli kasalliklar va epidemiologiya sohasini rivojlantirishda xotin-qiz olimlari va shifokorlar faoliyati nafaqat tibbiyot tarixining, balki ijtimoiy va madaniy tarixning ham muhim qismi hisoblanadi. Ushbu sohada tajribani o'rganish va tahlil qilish orqali quyidagi **takliflar** amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

1. Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar bilan bog'liq arxiv hujjatlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, kafedra faoliyati va oliy ta'lim muassasalaridagi materiallar to'liq yig'ilib, elektron baza shaklida saqlanishi lozim. Bu tarixchi va sog'liqni saqlash sohasi olimlari uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi;

2. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda xotin-qizlar ishtirokini ilmiy tadqiqotlar va tarixiy tahlil asosida tasvirlovchi kitoblar, maqolalar va monografiyalar tayyorlash. Bu yangi avlod uchun ilmiy va tarixiy ilhom manbai bo'ladi;

3. Tarixchilar, epidemiologlar va tibbiyot olimlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlab, epidemiyalar tarixi, profilaktika va tibbiyot sohasidagi yutuqlarni birlashtirilgan tarzda o'rganishni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan manbalar:

1. Национальная платформа действий по повышению статуса женщин в Узбекистане и стимулированию участия женщин в общественной жизни. – Тошкент: Комитет Женщин Узбекистана, Бюро по проблемам гендера и развития, ПРООН, 1999. – Совместная публикация.
2. М-37-фонд. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси.
3. Ўзбекистон Республикаси статистик тўплами 2004. – Тошкент, 2005. – 396 б.
4. Ўз ИТТХ МА, М-372-фонд, 1-рўйхат, 1382-иш, 8-варақ
5. Ўз МА, Р-837-фонд, 41-рўйхат, 2126-иш, 424-варақ.
6. Тошкент давлат педиатрия тиббиёт институти жорий архиви. Институтнинг илмий бўлими ҳисоботи папкаси дан.
7. Вирусология илмий текшириш институти жорий архиви материаллари.
8. Темирова С. Юқумли касалликлар. – Тошкент: Адолат учқунлари, 2014. –Б. 3.
9. Аҳмедова К. Улкан шижоат билан тобора илгарилаб борамиз // Sihat-salomatlik, 2019. №-11. –Б.6.
10. Каримова М., Анваров Ш. Сахий қалб соҳиби // Tibbiyotnoma, 2017 yil, 26 sentyabr. № 9. –Б.4.
11. Турдибоева В. Вирусли инфекциялар: ҳимояланиш йўллари биламизми? // Sihat-salomatlik, 2019 йил 2-сон. –Б.8.
12. Нуриддинова Н., Шоалимова З. Буюк мақсадлар билан яшаш саодати // Tibbiyotnoma, 2019 yil, 29 oktyabr. № 10.
13. Ўз касбини фидойиси // Tibbiyotnoma, 2018 yil, 25 sentyabr. №9. –Б.4.